

VOKAL VA XOR MALAKALARI ORQALI O'QUVCHILARDA  
ESTETIK TAFAKKUR VA IJODIY QOBILYATLARNI  
SHAKLLANTIRISH

*Turg'unova Gulshoda Raxmonjon qizi*

*Namangan davlat pedagogika instituti magistranti*

**Annotatsiya:** *ushbu maqola, o'quvchilarda estetik tafakkur va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishda vokal va xor malakalarining o'rnini tahlil qiladi. Maqolada, vokal va xor darklarining o'quvchilarni nafaqat musiqiy savodxonlikka, balki estetik jihatdan go'zallikni tushunishga va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga ham yordam berishi mumkinligi haqida muhokama qilinadi. Vokal va xor faoliyati orqali o'quvchilarda musiqiy idrokni, emotsional sezgirlikni va o'zini ifodalash qobiliyatlarini rivojlantirishda qanday usullarni qo'llash mumkinligi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, maqolada estetik tafakkur va ijodiy qobiliyatlarning o'zaro bog'liqligi, shuningdek, ta'lim jarayonida bu ko'nikmalarni qanday qilib samarali shakllantirish mumkinligi haqidagi nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *musiqiy idrok, estetik tafakkur, ijodiy fikrlash, emotsional sezgirlik, musiqiy ifoda, pedagogika, ijodiy qobiliyat, xor, vocal, musiqiy ta'lim.*

FORMATION OF AESTHETIC THINKING AND CREATIVE  
ABILITIES IN STUDENTS THROUGH VOCAL AND CHORAL SKILLS

*Turgunova Gulshoda Rakhmonjonovna*

*Graduate student of Namangan State Pedagogical Institute*

**Abstract:** *this article analyzes the role of vocal and choral skills in the formation of aesthetic thinking and creative abilities in students. The article discusses the possibility of vocal and choral classes helping students not only to acquire musical literacy, but also to understand beauty aesthetically and develop creative thinking. It shows what methods can be used to develop musical*

*perception, emotional sensitivity and self-expression skills in students through vocal and choral activities. In addition, the article analyzes the relationship between aesthetic thinking and creative abilities, as well as theoretical approaches to how these skills can be effectively formed in the educational process.*

**Keywords:** *musical perception, aesthetic thinking, creative thinking, emotional sensitivity, musical expression, pedagogy, creative ability, choir, vocal, music education.*

Musiqa ta'limidan davlat ta'lim standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. O'quvchilarning musiqiy-estetik rivojlanishlari uchun o'qituvchi o'zining ish faoliyatida sidqidildan tayyorlanib, darslarni yuksak metodik darajada o'tilishini ta'minlashi lozim. Zero, dars o'qituvchidan katta irodaviy kuch, izlanish, hozirjavoblik hamda turli pedagogik vaziyatlarga tezda munosabat bildirishni talab etadi. Samarasiz dars kamchiliklari uzoq vaqt o'qituvchiga orom, halovat bermaydi, ortga nazar solib uning sabablarini qidirishga ehtiyoj sezadi.

Estetik tafakkur va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bugungi kunda ta'lim jarayonida muhim o'rin egallaydi. O'quvchilarda bu sifatlarni shakllantirishda musiqa, ayniqsa vokal (kuylash) va xor (xor musiqasi) faoliyati katta ahamiyatga ega. Vokal va xor malakalari o'quvchilarga nafaqat musiqa san'ati, balki umumiy estetik tafakkur va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim vositalar bo'lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada vokal va xor malakalari orqali o'quvchilarda estetik tafakkur va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning asosiy usullari, maqsadlari va ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Musiqa madaniyati darsi – maktabda musiqa tarbiyasini tashkil etishning asosiy shaklidir. Musiqa to'garaklari, fakultativ mashg'ulotlar ham amaliyotda bo'lsa-da, dars hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, chunki musiqa madaniyati darsi musiqiy faoliyatning turli shakllarini o'z ichiga oladi. Bular

jamoaviy qo'shiq kuylash, musiqiy ritmik harakatlarni bajarish, musiqa tinglash, musiqiy savodxonlik, musiqa ijodkorligi, o'quvchilar cholg'u asboblari chalish va hokazo. Dars musiqa tarbiyasi tizimida yetakchi omil hisoblanadi, chunki bunda barcha o'quvchilar qamrab olinadi. Musiqa darsining muxim xususiyatlaridan biri shundaki, u ko'proq ijodiy zavq, xissiy tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Musiqa, ayniqsa, o'quvchilarning aqliy va axloqiy estetik jihatdan kamol topishiga rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda talim-tarbiya tizimi hamma o'quvchilar uchun bir xil imkoniyatlar yaratilgan. Shu bilan birga har bir o'quvchida mavjud bo'lgan iqtidor, qobiliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib ularning individual o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan yondashuvni inkor etmaydi. Qobiliyatlarning namoyon b'lishi uchun esa inson ko'p mehnat qilishiga to'g'ri keladi. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olib uni ilk yoshidan boshlab to'g'ri tashkil qilish va yo'naltirish muhim pedagog vazifadir. Aks holda bola rivojlanishida orqada qolishi seziladi. Misol uchun, bolani ilk yoshidan boshlab musiqiy tovushlarning balandligi bo'yicha tushuncha berilmasa u yetti yoshida bu vazifalarni uddalay olmaydi.

Vokal va xor musiqasi o'quvchilarda estetik tafakkurni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Vokal san'ati, odamning ovozi ijro etish orqali ichki dunyosini ifodalash imkonini beradi. Vokal mashg'ulotlari o'quvchilarga nafaqat musiqiy karnay va kuylash texnikalari haqida bilimlarni beradi, balki ularning ijodiy tafakkurlarini, kompozitsion tasavvurlarini, xulq-atvorini va hissiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Xor musiqasi esa o'quvchilarga jamoaviy ishni o'rgatadi, guruhda ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Xor ijrochiligi ko'proq hamkorlik, intizom va ijodiy fikrlashni talab qiladi. O'quvchilar xor ijro etish jarayonida bir-birlari bilan muvofiqlashib, musiqa kompozitsiyalarini birgalikda yaratishga intilishadi. Bu esa o'quvchilarning ijodiy fikrlashini va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Estetik tafakkur insonning go‘zallikni anglash va unga nisbatan hissiy munosabatini shakllantiradi. Vokal va xor mashg‘ulotlari o‘quvchilarga musiqa orqali dunyoni idrok etish, uning estetik tomonlarini ko‘rish va tushunish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu jarayon orqali o‘quvchilar o‘zining ichki dunyosini boshqalar bilan baham ko‘rishga o‘rganadilar.

Vokal va xor mashg‘ulotlarida o‘quvchilar musiqa va she‘r orqali o‘zlarining his-tuyg‘ularini ifodalaydilar. Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarda musiqiy obrazlarni yaratishga, musiqiy estetik qabulni rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, vokal faoliyat o‘quvchilarning har bir ovozi eshitib, uni xushbichim va to‘g‘ri ijro etish ko‘nikmalarini oshiradi. Bunday mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar musiqa asarlari orqali yangi tafakkur shakllarini, hayotning go‘zal tomonlarini anglashga harakat qiladilar.

O‘quvchilarda estetik tafakkur va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun vokal va xor mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish muhimdir. Bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun quyidagi usullarni qo‘llash mumkin:

1. **Mashq qilishning samarali tizimi:** vokal va xor mashg‘ulotlari muntazam va tizimli o‘tkazilishi kerak. O‘quvchilarning ovozi rivojlantirish, uning tembrini yaxshilash, ritm va tonallikni o‘rgatish orqali ijodiy yondashuvni kuchaytirish mumkin.

2. **Improvisatsiya va yaratuvchanlik:** o‘quvchilarni musiqiy improvisatsiyaga jalb qilish, yangi qo‘shiqlar yaratish, musiqiy frazalar va melodiyalarni o‘zgartirish orqali ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

3. **Badiiy tahlil va tahliliy fikrlash:** vokal va xor mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni musiqiy asarlarni badiiy tahlil qilishga o‘rgatish, ularning musiqa estetikasi va tuzilishiga nisbatan o‘z qarashlarini shakllantirishga imkon yaratadi.

4. **Jamoaviy faoliyat:** xor mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilar jamoada ishlashni o‘rganadilar, bir-birlariga yordam berish, hamkorlik qilish va musiqiy tilda birlashishni o‘rganadilar.

Vokal va xor malakalari o'quvchilarda estetik tafakkur va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishda juda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu faoliyat orqali o'quvchilar musiqa va san'atni nafaqat texnik jihatdan, balki estetik va ijodiy nuqtai nazardan ham anglaydilar. Shuningdek, vokal va xor mashg'ulotlari o'quvchilarda hissiy va estetik qobiliyatlarni rivojlantiradi, ularni musiqaning go'zalliklarini his qilishga o'rgatadi. O'quvchilarda bunday sifatlarni rivojlantirish, ularning shaxsiy o'sishiga, ijtimoiy va madaniy hayotga to'liq kirishiga yordam beradi. Musiqa darsida o'quvchilarning quyi sinflarda olgan vokal-xor malakalari takomillashadi. Bu, malakalar qo'shiqning to'g'ri, ta'sirli aytilishini taminlaydi hamda o'quvchilar ovozining yaxshilanishiga va shu bilan birga parvarish qilinishiga ijobiy yordam beradi. O'quvchilarning ovoz apparatlari, musiqa o'quviga qarab o'sadi. Shuning uchun qo'shiq kuylash malakalari, ovozning asosiy elementlari: nafasni rejaga solish, tovush hosil qilish, diksiya, soz, ansambl kabilar dasturda har bir o'quv yili uchun alohida-alohida beriladi. Ta'lim jarayonida bu elementlarning hammasi bir-biriga uzviy bog'lanib olib boriladi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda «Ta'lim to'g'risidagi Qonun»ga tayanch sifatida maktabgacha ta'lim muassasalari uchun «Uchinchi ming yillik bolasi» dasturi 1991 yil M.Sh.Rasulova tomonidan ishlab chiqildi. 2000 yilda ushbu dastur qayta nashr qilindi va unda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar egallashlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar, zamonaviy pedagogik jarayonni tashkil etishga qo'yiladigan talablar o'z aksini topgan. Maktabgacha bo'lgan davr psixologiyada ilk bo'ialik davri deb yuritiladi hamda bolalikning eng go'zal va esda qoladigan damlarini o'z ichiga oladi. Musiqa tarbiyasi bolalar bog'chasi va umumiy o'rta ta'lim maktablarida umumiy fanlar tarkibida o'qitiladi. Shuning uchun bu o'quv fanini o'qitish nazariyasi hamda metodikasini o'zlashtirish hozirgi kunda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Vengrus L. Vokalno-xorovaya rabota s detmi doshkolnogo vozrasta. Avtoref. diss, na soiskanie uch. st. k. isk. L., 1988.
2. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlami o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirish. P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. (13.00.01.), 2006 y.
3. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlami o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T.:Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2005 y.
4. Vospitanie muzikoy. M.: «Prosveshhenie», 1991 g.
5. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturini amaliyot ga joriy etish. O'quv-seminar materiallari. – T., 2021. 28-30 iyun.
6. Qo'chqorov G'. Folklor qo'shiqchiligi.- T., 2005.